

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
ARXITEKTURAVIY LOYIHALASH ASOSLARI FANIDAN MALAKA
TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ARXITEKTURAVIY LOYIHALASH ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Arxitekturaviy loyihalash asoslari fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Arxitekturaviy loyihalash asoslari.

1. Arxitekturaviy loyihalashda biznes markaz binolari haqida umumiy ma’lumotlar;
2. Qurilish ashyolarini arxitekturadagi o‘rni;
3. Jamoat binolarini loyihalashning o‘ziga xos xususiyatlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Arxitekturaviy loyihalashda biznes markaz binolari haqida umumiy ma'lumotlar.	Arxitekturaviy loyihalashda "Biznes markaz binolari" boshlang'ich me'moriy asos bo'lib, loyihalashda foydalanib, zamonaviy va me'yoriy asoslarga asoslanib tushuntiriladi. Barchamizga ma'lumki, loyiha ishlarini zamonaviy va me'yoriy asoslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ya'ni arxitekturaviy loyihalashda "Biznes markaz binolarini" bosqichma-bosqich amaliy ravishda to'liq o'tilishi natijasida yangi binolar yuzaga kelaveradi. Shu sabab ushbu qo'llanma talabalarimizga loyihalashning ilk bosqichlarini umumiylikni tushuntirib (izlanish) bosqichi va (dastlabki) bosqichlari muhim ekanligini anglab yetishiga yordam beradi. Talabalarimiz "Biznes markaz binolarini" loyihalashda tartibli va to'liq rioya qilib ishlasalar, maqsadga muvofik bo'ladi. "Arxitekturaviy loyihalash" fanidan "Biznes markaz binolarini" o'quv qo'llanmasi ilk bor uzbek tilida tayyorlandi. Mavzular ketma-ketligi amaliy ishlash jarayoniga taqqoslab olingan. Ushbu o'quv qo'llanma "Arxitektura" yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar loyiha ishini bajarish uchun mo'ljallangan.	37,5 %	15
2	Qurilish ashyolarini arxitekturadagi o'rni	Har bir fan nazariy qism, amaliy mashg'ulotlarni mustaqil ravishda bajarishni va namoyon etiladigan namunalar ko'rgazmalaridan foydalanishlarni taqazo etadi. Qurilish ashyolarining turlari va ularning sifati	30 %	12

		<p>iqtisodiy ko'rstkichlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ashyo bilan ishlashda amaldagi arxitektura qurilish me'yorlari va qoidalari, tabiiy (geografiya,iqlim) va ijtimoiy (madaniy, milliy-psixologik) omillarni hisobga olish kerak.</p>		
3	<p>Jamoat binolarini loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari</p>	<p>Jamoat binolarining yashash xonalaridan farq qiladigan o'ziga xos jihatlarini ularga odamlarning bir vaqtda tashrif buyurishi bilan tushuntirish mumkin. Masalan, tomosha va sport binolari, o'quv, madaniy - marifiy, savdo va sh.k. binolarni jamoat binolariga misol tariqasida keltirish mumkin. Jamoat binolari xonalaridan foydalanish ommaviyligi loyihalash paytida shunday maxsus joylar (xonalar)ni ko'zda tutish zaruriyatini keltirib chiqaradiki, bunday maxsus xonalar qisqa vaqt ichida ko'p sonli odamlarni qabul qilish va chiqarishga moslangan bo'lib, ular qatoriga quyidagilar: vestibyullar, avan vestibyullar, foye va shu kabilar kiradi. Binoning tegishli bo'lgan joylariga borish masofasini qisqartirish va odamlar oqimini to'g'ri yo'naltirish uchun bog'lanish va evakuatsiya yo'llari (yo'laklar, kularlar, oraliq o'tish joylari, zinapoyalar, panduslar, liftlar, eskalatorlar) loyihalanadi. Shuning uchun jamoat binolarining turli - tumanligiga qaramasdan, ularning hammasi bir qator umumiy tarhiy elementlar: vestibyullar va garderoblarga bilan birgalikda kirish tugunlariga, bog'lanish va evakuatsiya yo'llariga ega bo'ladi.</p>	32,5 %	13

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtixon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtixon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Raximov Lazizbek Shahnazarovich. Arxitekturaviy loyihalashda: "Biznes markaz binolari" o'quv qo'llanma. Toshkent. "TAQI". 2022 y.
2. Qosimov E.U., "Arxitektura ashyoshunosligi" Darslik. Toshkent. "Noshir". 2016 y.
3. S.Sayfiddinov "Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi" Darslik. Toshkent. 2024 y.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*